



O'ZBEKISTONDA TRANSFORMATSIYALASHAYOTGAN IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA VENCHUR KAPITALNING O'RNI

Cho'lliyev Suhrob Rabbonaqlovich

Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi. Ўзбекистон.

suhrobchulliyev@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a32

Annotatsiya

Ushbu maqolada transformatsiyalashayotgan iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida venchur kapitali va innovatsiyalarning roli haqida qator olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan. Venchur kapitalining manbalari, funksiyalari va o'zigan xos xususiyatlari keltirilgan. O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda venchur investitsiyalashni shakllantirish va ular samaradorligini ta'minlashning SWOT tahlili qilingan.

Kalit so'zlar (Keywords): Innovatsiya, transformatsiya, venchur kapital, texnologiya, venchur moliyalashtirish.

Аннотация

В статье рассматриваются исследования ряда ученых о роли венчурного капитала и инноваций в инновационном развитии трансформирующейся экономики. Представлены источники, функции и специфические характеристики венчурного капитала. Проведен SWOT-анализ формирования венчурных инвестиций в инновационное развитие экономики Узбекистана и обеспечения их эффективности.

Ключевые слова: Инновация, трансформация, венчурный капитал, технологии, венчурное финансирование.

Abstract. The article examines the research of a number of scientists on the role of venture capital and innovation in the innovative development of a transforming economy. Sources, functions and specific characteristics of venture capital are presented. A SWOT analysis of the formation of venture investments in the innovative development of the economy in Uzbekistan and ensuring their effectiveness was made.

Keywords: Innovation, transformation, venture capital, technology, venture financing.

Kirish

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga kapital oqimini ta'minlashga qodir innovatsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbai venchur investitsiyalari hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar venchur kapitalidan innovatsiyalarni moliyalashtirish vositasi sifatida foydalanib samarali natijalarga erishgan.

Mamlakatda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to'sqinlik qiluvchi bir qator tizimli muammolar mavjudligi ularning yechimi bo'yicha hukumat tomonidan bir qator qaror va farmonlarining ishlab chiqilishiga olib keldi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi (2020 y.), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 3 noyabrdagi 684-son “UZVC” milliy venchur fondi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida"gi PF-5308-son farmoni, “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018 yil 5 maydagi PQ-3697-sonli qarorining, 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli farmoniga asosan 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi qabul qilinishi, Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi shakllantirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim bosqichlardan biri bo‘ldi. [14]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

G.S.Gamidov, V.G. Kolosov, N.O.Osmanovlar [2] o‘z ishida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida yangi texnologiyalar, innovatsiyalarning muhimligini ko‘rsatib o‘tishgan.

Xorijlik olimlardan P.Gompers va J.Lerner [4] o‘z ishlarida venchur kapitalining ahamiyati, moliyaviy bozordagi o‘rni va innovatsion jarayonlarning har bir bosqichida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha venchur kapitalistlari ishlab chiqqan ko‘plab mexanizmlarini tahlil qilgan.

Rossiyalik olim Yu.P.Ammosov [5] o‘z kitobida venchur kapitalizmining paydo bo‘lish va rivojlanish tarixi, uning yuqori texnologiyalar rivojlanishi va yangi tez o‘sovchi texnologik kompaniyalar tashkil etilishidagi rolini ko‘rib chiqqan. Uning ishi venchur kapitalining iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, texnologik va madaniy tomonlarini tahlil qiladi.

Iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga fan-texnika taraqqiyotining ta‘sirini o‘rgangan avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeterning [6] “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli ishida innovatsiyalarning mazmuni ochib berilgan.

V.I.Gromeka [8] o‘z ishida venchur kapitalining yangi kichik kompaniyalarni moliyalashtirish manbalari orasida eng muhimi sifatida qaragan va u venchur kapitalini mobilizatsiyalash usullariga ham alohida to‘xtalib o‘tgan.

Ya. Sergiyenko va A.Frenkellar [9] o‘z tadqiqot ishida innovatsion faollikda venchur investitsiyalarning ahamiyatini o‘rganishgan.

Sh.A. Atamuradov [7] o‘z tadqiqot ishida innovatsion tadbirkorlik faoliyatini venchur fondlari orqali moliyalashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqqan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning innovatsion g‘oyalarni venchur kapitali orqali moliyalashtirilishi bo‘yicha tajribalarini shu sohada tadqiqot olib brogan yetakchi olimlar ilmiy ishlari natijalarini, statistic ma‘lumotlarni tahlil qilish, qiyoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonning YAIM hajmi bo‘yicha, aholi jon boshiga daromad bo‘yicha va boshqa ko‘plab parametrlar bo‘yicha hetakchi jahon mamlakatlari guruhiga kirishi iqtisodiyotni transformatsiyalamay turib mumkin bo‘lmaydi va doimiy ravishda texnologiyalarni, jamiyatning iqtisodiy natijalari va umuman hayotini yaxshilash uchun investorlar vektorini insonlar bilim va ko‘nikmalaridan yanada samaraliroq foydalanish tomonga o‘zgartirishni

talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligini e’tirof etilgan. “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g‘oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.” [1]

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda innovatsion rivojlanishining strategik yo‘nalishiga tobora ko‘proq e’tibor berilmoqda, unga ko‘ra mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatidan faqat samarali va tizimli foydalanishgina uning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashi mumkin. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini jadallashtirish uzoq muddatli istiqbolda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekistondagi eng muhim va jiddiy muammolardan biri fan-texnika faoliyati natijalarini amalga oshirish muammosi hisoblanadi. Paradoks shundaki, amalga oshirilmay qolgan ilmiy yutuq va kashfiyotlarning ahamiyatli miqdori yig‘ilib qolgan va iqtisodiyotdagi ko‘pchilik sohalar texnologiyalarining jismonan va ma‘nan eskirishi oqibatida bu yutuq va kashfiyotlardan foydalanish uchun keng maydon mavjud. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda fundamental fan – amaliy tadqiqotlar – real sektor zanjiri mavjud emas. Yangi texnologiyalar va kashfiyotlar ishlab chiqarish sohasiga ancha sekin jalb qilinmoqda, bu esa O‘zbekiston mahsulotlarining ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligi pasayishiga olib boradi. Bu holat mamlakatni fan-texnika sohasida autsayderga aylanib qolishi kabi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yangi yoki mavjud bo‘lmagan tovarlarni, texnologiyalarni va xizmatlarni ishlab chiqarishda yangiliklar, innovatsiyalar, shuningdek erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarni amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi; mehnat unumdorligini oshirish, sanoatning yangi sohalarini, xizmatlar va ish o‘rinlarini yaratish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va jahon bozorida mahalliy tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.[2]

O‘zbekistonda tashkilotlarning innovatsion faolligi darajasi hozircha yuqori emas (1-jadval), shuning uchun zamonaviy sharoitlarda O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalashga, uning rivojlanishning innovatsion ssenariysiga o‘tishiga bo‘lgan ob‘yektiv ehtiyoji mavjud.

1-jadval

**O‘zbekistonda korxonalar va tashkilotlarning innovatsion faoliyati,
2018-2019 yillar [3]**

Innovatsiyalar	Innovatsiyalar joriy qilgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda*		Joriy qilingan innovatsiyalar soni, birlik	
	2018 yil	2019 yil	2018 yil	2019 yil
Jami	1024	1587	2558	4567
Texnologik innovatsiyalar	982	1514	2482	4427
Marketingga oid innovatsiyalar	17	28	42	128
Tashkiliy innovatsiyalar	25	45	34	13
* Innovatsiyalarning bir necha xillarini amalga oshiruvchi tashkilotlar, “jami” qatorida bir marta hisobga olingan				

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda ilmiy-texnika sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan qator davlat tashabbuslari ishlab chiqilgan: “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” ishlab chiqildi, “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi” ishlab chiqildi, Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi shakllantirildi, O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda.

Bu yerda asosiysi – ilm talab, texnik jihatdan murakkab ishlanmalarning alohida namunalari yaratibgina qolmasdan zamonaviy innovatsion loyihalarni ishlab chiqish orqali mamlakatning innovatsion salohiyatini tiklash, undan keyin ichki va jahon bozorida o‘zi va investorlar uchun foyda bilan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish va sotish.

Hozirgi vaqtda asosiy transformatsiya jarayonlari asosan iqtisodiyotni eng yangi texnologik tartibni shakllantirish sharoitlariga moslashishi uchun katalizator rolini bajaradigan texnologik yangiliklarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Hozirgi jahon iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda texnologiyalar sohasida yuqori raqobat va ularni transfer qilishning keng imkoniyatlari mavjud. Bunday sharoitlarda milliy innovatsion tizimlarning asosiy rivojlanish mexanizmi sifatida shakllanishi jahon iqtisodiyotining uzoq muddatli o‘shining bosh omili bo‘lib qoldi. Endilikda mamlakatlar innovatsion rivojlanishning zaruriy darajasini ta‘minlash masalasida passiv bo‘lishlari mumkin emas; aks holda ularni baxtsiz istiqbol kutadi: tashqi moliyaviy va texnologik resurslarga qaramlik ularning faqat xom-ashyo yetkazib beruvchi bo‘lishiga olib keladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsion yondashuvning ahamiyati ko‘pgina iqtisodchilar tomonidan ta‘kidlanadi.

“Innovatsiya” tushunchasining o‘zi, birinchilardan bo‘lib XX asrning birinchi yarmida iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga fan-texnika taraqqiyotining ta‘sirini o‘rgangan avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter nomi bilan bog‘lanadi.

Y.Shumpeter “ishlab chiqarish – bizning sferamizda mavjud bo‘lgan narsalar va kuchlarni birlashtirmoq demak. Ishlab chiqaruvchi bu boshqa narsa yoki boshqacha aytganda – shu narsalar va kuchlardan boshqa kombinatsiyalar yaratish degani” [6] deb hisoblagan.

Y.Shumpeterning “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” nomli ishida innovatsiyalarning mazmuni ochib berilgan:

1. “Yangi, ya‘ni iste‘molchilarga hali ma‘lum bo‘lmagan ne‘matlarni yaratish yoki u yoki bu ne‘matning yangi sifatini ishlab chiqish.

2. Yangi ilmiy kashfiyotga asoslanmagan va shuningdek tegishli tovardan tijoriy maqsaddan foydalanishning yangi usuli mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarishning yangi, ya‘ni sanoatning ushbu sohasida umuman ma‘lum bo‘lmagan metodni (usul) qo‘llash.

3. Sotish uchun yangi bozorni, ya‘ni bu mamlakat sanoatining mazkur sohasi hali namoyish etilmagan bozorni o‘zlashtirish. Bunda ushbu bozor avval mavjud bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi muhim emas.

4. Xom-ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlarning yangi manbasini o‘zlashtirish: bu manba avval mavjud bo‘lgan yoki bo‘lmaganligidan, yoki shunchaki e‘tiborga olinmaganligidan yoki erishib bo‘lmaydigan deb hisoblangan, yoki uni endi yaratish kerak bo‘lganligidan qat‘iy nazar.

5. Tegishli qayta tashkil etishni amalga oshirish, masalan monopol holatini ta’minlash (trest tashkil etish orqali) yoki boshqa korxonaning monopol holatini barbod etish orqali”. [6]

Rossiyalik iqtisodchi Nikolay Kondratev XX asrning 20-30 yillarida uzun to’lqinlar nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko’ra iqtisodiy tizim holati davomiyligi chamasi 50 yilni tashkil etuvchi davriy tebranishlarga duchor bo’ladi. Bunda aynan fan-texnikaga oid innovatsiyalar iqtisodiy tizimni bir davrdan ikkinchi davrga o’tkazuvchi omil bo’lib xizmat qiladi.

Ko’pchilik tadqiqotchilar innovatsiyalarni texnologik, boshqaruv va mahsulot innovatsiyalariga bo’lishni afzal ko’radilar.

Mahsulot yoki texnologik innovatsiyalardan qaysi biri iqtisodiy nuqtai-nazardan muhimroq ekanligi haqida bahslashish ma’nosiz, lekin ishonch bilan aytish mumkinki iqtisodiyotning ko’tarilish davrida yoki tovarning yangi ko’rinishiga kuchli talabning paydo bo’lishida asosiy rolni mahsulot yangiliklari egallaydi. Texnologik yangiliklar esa mavjud bo’lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi xarajatlarni kamaytirish uchun yangi texnologik ishlab chiqarish jarayonlaridan foydalaniladigan bozorning nisbatan to’yinganligida muhim ahamiyat kasb etadi. [8]

Mavjud bo’lgan mahsulot yoki texnologik jarayondan farqli ravishda, nafaqat mikro, balki makrodarajaga ham ta’sir qiluvchi har qanday yirik innovatsiyalar fan-texnika yangiligi sifatida muhim xususiyatga ega. Har xil innovatsiyalar yangilikning turli darajalariga ega, shuning uchun ilmiy, texnik va iqtisodiy nuqtai-nazardan uning ishonchli ko’rsatkichlarini izlash shu qadar muhimdir. Masalan, samolyot tezligini keskin oshirish mumkin, lekin bu yoqilg’i sarfining oshishi evaziga jiddiy iqtisodiy yo’qotishlarga olib keladi. Mahsulot yoki jarayonning haqiqiy yangiligi ulardan foydalanishdan olinadigan iqtisodiy samaraning o’sishi bilan bog’liq bo’lishi kerak. [8]

Innovatsiyalarning boshqa bir muhim xususiyati shundaki, u o’zida kamdan kam uchraydigan bir martalik hodisani emas, balki kam yoki ko’p davom etadigan jarayonni, texnik g’oyaning yoki kashfiyotning paydo bo’lishidan toki ularning yangi texnologik jarayonga tadbiiq etilishigacha bo’lgan davomli zanjirni yoki bozorda qo’llaniladigan sifat jihatdan yangi mahsulotni ifodalaydi. Ushbu ikki nuqtai-nazar o’rtasida bozorda yangi mahsulotni tijoratlashtirish yoki ishlab chiqarishda yangi texnologik jarayondan tejamkorlik bilan foydalanish bilan yakunlanadigan tadqiqot, ishlab chiqish, ixtiro, loyihalash, talabni tahlil qilish, ishlab chiqarish bo’yicha qarorlarni qabul qilish va boshqalarning o’zaro bog’liq bosqichlari mavjud. [8]

Iqtisodiy o’sish xususiyati bo’yicha eng yaxshi va/yoki avval mavjud bo’lmagan tovar (xizmatlar) va texnologiyalarni yaratishga yo’naltirilgan jarayon sifatida ta’riflash mumkin bo’lgan innovatsion faoliyatning yetakchi roli ekanligi to’g’risidagi fakt bugungi kunda hech kimda shubha tug’dirmaydi. Avval ta’kidlanganidek, innovatsion jarayonning o’zi bozor talab qilayotgan mahsulotni sotish bilan tugashi kerak.

Ma’lumki, yirik kompaniyalar daromadining taxminan yarmini bozorda mavjud bo’lish muddati besh yildan oshmaydigan yangi turdagi mahsulotlarni sotish evaziga oladilar. Sanoat kompaniyalari ilmiy –tadqiqot ishlanmalariga sarflarni ko’paytirishni xohlashadi, ammo doimiy bir qator qiyinchiliklar bilan bog’liq.

Innovatsion biznesning paradoksi shundaki, kichik korxonalar uchun yuqori mobillik, texnologik yangiliklarga sezgirlik va tavakkal qilishga tayyorligi tufayli yangi texnologiyalarni

hayotga tadbiiq etish ancha oson bo‘ladi; ular, yirik kompaniyalardan farqli o‘laroq, yangi mahsulotni tadbiiq etish bozordagi mavjud vaziyatga ta’sir qilishi mumkin deb qo‘rqmaydilar. Yirik kompaniyalar yangi g‘oya va texnologiyalarni joriy qilishda ko‘pincha muammolarga duch keladilar, shuning uchun amalda ular buning uchun kichik innovatsion korxonalaridan foydalaniladilar.


Shunday qilib, samarali innovatsion takror ishlab chiqarish kichik va yirik korxonalar integratsiyasi asosida shakllanadi, bunda kichik korxonalar innovatsion sohada, yirik korxonalar esa investitsion sohada faoliyat yuritadi.

Innovatsion biznes yuritishning “korporativ venchur” deb nomlanuvchi modeli keng tarqalgan. Uning doirasida korxonalar innovatsion rivojlanishga oid muammolarini mustaqil ravishda hal etadilar, bunda resurslarni innovatsion loyihani amalga oshirishga yo‘naltiruvchi yirik bosh kompaniya asosiy investor bo‘lib qoladi. Innovatsion loyiha bosh kompaniya tarafidan tashkil etilmagan taqdirda, moliyalashtirish odatda korporativ jihatdan tobe bo‘lgan venchur fond orqali amalga oshiriladi.

Aynan kichik innovatsion biznesni tashkil etish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi yana bir muhim omil – turli ilmiy markazlarning ilmiy kashfiyot va ixtirolarining ahamiyatli darajada ko‘payishi bo‘ldi. Bunday muassasalardagi ko‘pchilik olimlar va injenerlar o‘z ixtirolarini amalga oshirish uchun kichik firmalar tashkil etib tadbirkor sifatida namoyon bo‘la boshladilar va bu xorij amaliyotida keng tarqaldi.

Bunday kichik innovatsion korxonalarni moliyalashtirish asosan venchur investitsiyalash texnologiyalari hisobiga amalga oshiriladi. Venchur kapitali ilmiy tadqiqotlar, amaliy ishlanmalar va innovatsion faoliyatni byudjetdan tashqari moliyalashtirishning muhim manbasi bo‘lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyoti investitsion resurslarining umumiy hajmida venchur kapitalining ulushi nisbatan yuqori emas, lekin alohida mamlakatlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun juda muhim. Bu shu bilan tasdiqlanadiki, ko‘pchilik xalqaro nomga ega yirik kompaniyalar aynan venchur kapitali evaziga muvaffaqiyatga erishganlar. Venchur “harakati” asoschisi T.Perkins ta’kidlaganidek, “biz ishlab topgan pullar, aslida, qo‘shimcha mahsulot hisoblanadi, ... bizni nayzaning uchida turadigan, dunyoni o‘zgartirib yuborishi kerak bo‘lgan rivojlanuvchi ajoyib texnologiyalarni yaratish istagi harakatga keltirdi”. [4]

Venchur kapitalining kichik yuqori texnologiyali firmalar uchun muhimligi quyidagicha tushuntiriladi. Yosh yuqori texnologiyali firmalar odatda o‘z-o‘zini moliyalashtirish asosida rivojlanish orqali bo‘ladigan raqobat kurashuvida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Bank krediti ham bunday kompaniyalarning kredit tarixi va yetarli garovning mavjud emasligi tufayli kichik innovatsion korxonalarni moliyalashtirishning manbasi sifatida qaralishi mumkin emas. Bundan tashqari bunday korxonalarining tashkilotchilari ba’zan yetarli boshqaruv malakasiga ega bo‘lmaydi. Venchur kapitalining funksiyasi ham aynan kichik innovatsion korxonalarining rivojlanish yo‘lidagi shunday muammolarni hal etishdan iborat.



1-rasm. Venchur kapitalining manbalari, funksiyalari va o‘ziga xos xususiyatlari.
[5,7,10,11,12,15]

Manba: Ilmiy adabiyotlardan foydalanib muallif tomonidan tuzildi.

Venchur investorning mablag‘lari kompaniya tomonidan kichik innovatsion biznesning tez o‘sishi va rivojlanishiga yordam beruvchi o‘ziga xos moliyaviy richag sifatida foydalaniladi. Kompaniya tashkilotchilari va venchur investorlar faqatgina yuqori daromad olishga emas, balki iqtisodiyotning innovatsion sektorini rivojlantirishga ta‘sir o‘tkazish, ilmiy-texnik jarayonlarning yangi yo‘nalishlarini yaratish, yangi bozorlar tashkil etish va innovatsion monopoliyaga erishish hisobiga bu bozorlarda lider bo‘lishga ham harakat qiladilar. Kompaniya qiymatining o‘sish potentsiali aynan innovatsionlik darajasidan, ya‘ni loyihaning yangiligiga bog‘liq bo‘ladi.

Venchur kapitali ilg‘or g‘oyalarni tijoratlashtirish, yangi innovatsion kompaniyalarni va butun bir sohani tashkil etish va mavjudlarini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. U

korxonalarini rivojlanish turini qayta yo'naltirishga undash va ularning ilmiy-texnik va innovatsion faoliyati o'sishini rag'batlantirish orqali ulkan motivatsion rol o'ynaydi. Rivojlanayotgan innovatsion firmalar ko'pincha yangi texnologiyalar ishlab chiqaruvchilari, yirik korxonalar uchun yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion rivojlanish manbalarini yaratishda generator vazifasini bajarib, ularning investitsiya va innovatsion siyosatini qayta yo'naltirish, yuqori raqobatbardoshlikka imkon qadar tezroq erishish uchun sharoit yaratadilar.

Qator tadqiqotlar venchur kapitali innovatsiyalar va yangi yuqori texnologiyalari kompaniyalarni tashkil etishni rag'batlantirishi yordamida alohida metodlarning mohiyatini ochib beradi. S.Kortum va D.Lerner 1960-1990 yillarda AQSHdagi 20 ta sanoat sohasining faoliyatini tahlil qilib shuni aniqlashdiki, venchur kapitalining ishtiroki patent faoliyati hajmining 5-18%ga oshishiga olib keladi. T.Xellmann va M.Pyuri silikon vodiysining yangi tashkil etilgan 173 kompaniyalari haqidagi ma'lumotlardan foydalangan holda venchur moliyalashtirishdan foydalanuvchi kompaniyalarda mahsulotlarni bozorga chiqarish davri sezilarli qisqarganini ko'rsatib berdilar. [9]

M.Aoki venchur kapitalining texnologik innovatsiyalar ommalashuvidagi ishtirokining yana bir muhim omilini ta'kidladi. Silikon vodiysidagi yosh yuqori texnologiyali kompaniyalar qo'shilgan qiymat yaratishning yangi zanjiri paydo bo'lishi uchun sharoitni ta'minlovchi innovatsion mahsulotlarni rivojlantirishga ixtisoslashadilar. Zamonaviy texnologik va bozor rivojlanishiga xos bo'lgan yuqori darajadagi noaniqlik va raqobat sharoitida innovatsion firmalar doimiy ravishda barcha paydo bo'layotgan qo'shilgan qiymat zanjiriga ta'sir ko'rsatadigan kontragentlar o'rtasida uzluksiz ravishda ma'lumotlarni yaratish va taqsimlashga muhtoj bo'ladilar. Biroq, kompaniyalar bir vaqtning o'zida ularning o'z mahsulotlari uchun kritik ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos ma'lumotlarni birlashtirishlari va himoya qilishlari zarur, chunki faqat shugina ularga raqobatbardoshlikdagi ustunlikni kafolatlaydi. Ushbu ikki taraflamalik silikon vodiysida to'plangan firmalar o'rtasida texnologik bilimlarning almashinuvi va taqsimlanishining kuchayishiga olib keladi. Aytib o'tilgan jarayonlarda venchur kapitalistlari asosiy vositachilik rolini bajaradilar. [9]

P.Robertson va R.Langlui tomonidan ham shunga o'xshash xulosaga kelingan. Ularning ta'kidlashicha, moliyaviy innovatorlar innovatsion faolligi oshgan hududlar doirasida keng aloqalarni yaratish va saqlash orqali alohida kompaniyalarning rivojlanishini tezlashtirishga va ular amalga oshirayotgan yangiliklarni tarqatishga yordam beradilar. Bundan tashqari, venchur kapital paydo bo'lishidan oldin, "tashkil etilgan" holatidan yirik texnologik klasterlarga aylanganigacha qadar bo'lgan innovatsion firmalar guruhlarining rivojlanish davri 20 yildan ko'proq vaqtni tashkil etadi. [9]

Xulosa va takliflar

Venchur moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanishning afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yuqori istiqbolli innovatsion korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishni faollashtirish;
- iqtisodiyotning ayniqsa dinamik rivojlanayotgan yuqori texnologiyali sohasini qo'llab-quvvatlash;
- iqtisodiyotda innovatsiyalarni qo'llash va tarqalish tezligini oshirish;
- ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasini oshirish;

- ijtimoiy sohani rivojlantirish (ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat va boshqalar);
- turmush sifatini oshirish;
- innovatsion kompaniyalarni rivojlantirish orqali yangi raqobatbardosh ish o’rinlarini yaratish.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda venchur investitsiyalashni shakllantirish va ular samaradorligini ta’minlashning

SWOT tahlili

Kuchli tomonlari:	Zaif tomonlari:
<ul style="list-style-type: none"> ❖ Institutsional asoslarning mavjudligi (Innovatsion vazirlikning tashkil qilinishi, O‘zbekiston STARTUP-INDIKATOR ekotizimining tashkil etilishi, venchur fondlari tashkil topishi); ❖ Fundamental va amaliy fan sohalarini rivojlantirish va innovatsiyalarni yetarlicha qo‘llab-quvvatlanishi; ❖ Har bir hududda innovatsion rivojlanish markazlari va ishlab chiqarishni ilmiy asosda tashkil etishga alohida e’tibor qaratiluvchi klasterlarni tashkil etishga urg‘u berilishi va bu borada buning ijobiy natija berayotganligi; ❖ “Loyihalar fabrikasi” va biznes inkubatorlar. 	<ul style="list-style-type: none"> ❖ Keng jamoatchilikning venchur kapitali, venchur investitsiyalash nimaligi to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotga ega emasligi; ❖ Venchur fondlari faoliyatini tashkil etishda yetarlicha tajribaning mavjud emasligi; ❖ Venchur investitsiyalarga oid statistik ma’lumotlarning yetarli emasligi; ❖ Malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj; ❖ “Fan-ishlab chiqarish-bozor” o‘rtasida integratsion aloqalarning yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganligi.
Imkoniyatlar:	Xavf-xatarlar:
<ul style="list-style-type: none"> ❖ Davlat tomonidan ilmiy-tadqiqot faoliyatini, xususan, texnoparklar, IT parklar, biznes inkubatorlar, loyihalar fabrikasi faoliyatini tashkil etishga ajratilayotgan mablag‘lar salmog‘ining ortib borishi; ❖ Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoriga intilishi asosida ularda ilmiy-tadqiqot ishlarini tijoratlashtirishga bo‘lgan moyillikning ortib borishi; ❖ Investitsion muhitning yaxshilanishi asnosida xorijiy investorlar va ishlab chiqaruvchilarning mamlakatimiz iqtisodiyotiga qiziqishining ortib borishi. 	<ul style="list-style-type: none"> ❖ Xorijiy texnika va texnologiyalarni jalb qilishga tobora katta e’tibor qaratilishi asnosida mahalliy ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning nazardan chetda qolishi; ❖ Jamiyatda innovatsiyalarni qabul qilish darajasining pastligi;

Shunday qilib, venchur kapitali innovatsion rivojlanishi, iqtisodiyotning tuzilmaviy transformatsiyasi omili sifatida namoyon bo‘ladi. U “fan-ishlab chiqarish-bozor” zanjirining barcha bo‘g‘inlari o‘zaro ta’sirini ta’minlash orqali umuman iqtisodiyotning faoliyati samaradorligini oshiruvchi innovatsion faoliyatning o‘ziga xos investitsion mexanizmini yaratishga yordam beradi. Venchur kapitali – bu iqtisodiyotning innovatsion yangilanishini harakatga keltiruvchi kuch, uning o‘shirishini tezlatuvchi omil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.:2018, 19-20-betlar.
2. Гамидов Г.С., Колосов В.Г., Османов Н.О. Основы инноватики и инновационной деятельности. - СПб.: Политехника, 2000. - Б. 15.
3. O‘zbekiston raqamlarda. Statistik to‘plam 2018-2019. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent-2020. -B. 256.
4. Gompers, Paul, and Josh Lerner. 2001. "The Venture Capital Revolution." *Journal of Economic Perspectives*, 15 (2): 145-168.
DOI: 10.1257/jep.15.2.145
5. Аммосов Ю.П. Венчурный капитализм: от истоков до современности. СПб.: РАВИ, 2004. – 372 с.;
6. Шумпетер Й.А. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия - М.: Эксмо, 2007. -Б. 132
7. Ш.А.Атамурадов. Инновацион тадбиркорлик фаолиятини венчур фондлари орқали молиялаштиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. // Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. 08.00.07- Молия, пул муаммоси ва кредит. –Т.: “IMPRESS MEDIA” МЧЖ 2021. Б.22.
8. Инновационная политика развитых капиталистических государств. Сб. науч. трудов. / Ред. Гвишиани Д.М., Громека В.И. -М.: ВНИИСИ. 1990. - Вып. 3. - Б.5.
9. Сергиенко Я., Френкель А. Венчурные инвестиции и инновационная активность. // Вопросы экономики - №5, 2006.- С. 118.
10. Rabbonaqlovich, C. S. (2022). VENTURE CAPITAL AS AN ECONOMIC CATEGORY. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 83-87.
11. Chulliyev, S. R. (2021). VENCHUR KAPITALI IQTISODIYOTNI INNOVASION RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 596-602.
12. С.Чўллийев. Венчур капитали. [Матн]: Монография / – Тошкент:, «Yosh avlod matbaa», 2022. – 120 бет.
13. <https://stat.uz> – Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси сайти.
14. <https://lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси.
15. <https://www.uzvca.uz> – Ўзбекистон венчур инвестициялаш ассоциацияси сайти.